

**LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA  
MAKTABLAR TAJRIBASINING O'RNI**

**РОЛЬ ШКОЛЬНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ  
КОМПЕТЕНЦИЙ**

**THE ROLE OF SCHOOL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF  
LINGUISTIC COMPETENCES**

*Shadmankulova Dilorom Xalikovna,  
filologiya fanlari nomzodi, Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish  
metodikasi kafedrasida dotsenti. Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

*Шадманкулова Дилором Халиковна,  
кандидат филологических наук, Родной язык в начальных классах и  
методика его преподавания доцент кафедры. Ташкентский государственный  
педагогический университет*

---

*Shadmankulova Dilorom Khalikovna,  
Candidate of Philology, Native Language in Primary School and Methods of  
its Teaching Associate Professor of the Department. Tashkent State Pedagogical  
University*

---

*Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'limda ona tili fanidan lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarning o'rni, til sistemasi haqidagi bilim, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining shaxsiy xislatlari tushunilishi, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda mahorati anglashilishi haqida fikr yuritiladi.*

*Аннотация. В данной статье рассматривается роль языковых и коммуникативных компетенций из предмета родной язык в образовании, знание языковой системы, языкового мышления, понимания личностных особенностей учащегося, имеющего опыт самостоятельного применения знаний и умений в В новых языковых ситуациях языковая компетенция касается языка как социального явления и знаковой системы, знания, умения и навыки учащихся о построении и функционировании языка, а также понимание своих умений в различных ситуациях обсуждалось.*

*Abstract. This article discusses the role of linguistic and communicative competencies from the subject of the native language in education, knowledge of the language system, linguistic thinking, understanding of the personality characteristics of a student who has experience of independent application of knowledge and skills in new language situations. In new language situations, language competence concerns language as a social phenomenon and a sign system. , knowledge, skills and abilities of students about the construction and functioning of the language, as well as understanding their skills in various situations were discussed.*

*Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, nutqiy tajriba, kommunikativ kompetensiya, matn, rivojlanuvchi ta'lim paradigmasi.*

*Ключевые слова: речевая компетенция, языковая компетенция, речевой опыт, коммуникативная компетенция, текст, развивающая образовательная парадигма.*

*Key words: speech competence, language competence, speech experience, communicative competence, text, developing educational paradigm.*

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayoni subyektlarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish tajribasidan bugungi kunda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, AQSh, Germaniya, Angliya, Niderlandiya, Avstriya, Rossiya kabi davlatlarda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish sohasida samaradorlikka erishilmoqda. Bu esa, o'z navbatida Yevropa davlatlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab ko'rish, axborotlar bilan faol ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim kontsepsiyasida ustuvor yo'nalishlar sifatida o'z aksini topgan.

Jahonda boshlang'ich ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish, o'quvchilarning tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni modelining prognostik komponentlarini aniqlashtirish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlarni loyihalashning maqbul mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarning tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarini tashxislashning modifikatsion metodikalarini ishlab chiqish, o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishning STEAM-ta'limga asoslangan texnologiyalarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda "Boshlang'ich ta'lim kontsepsiyasi", "Milliy o'quv dasturi" hamda boshlang'ich ta'lim uchun o'quv-metodik majmualarda o'quvchilarning tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, o'qituvchilarni o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda ro'yobga chiqarish" [2] kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tayanch hayotiy kompetensiyalarni tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son [2], "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son [1], 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmonlari [5], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga

ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori [3], Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son Qarori [4] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta'limda ona tili kompetensiyalarining psixologik nuqtai nazardan ikki asosiy tarkibiy qismdan tashkil topgan deb qaraladi. Birinchisi-shaxsning aloqa-aralashuv va faoliyat jarayonida to'plagan nutqiy tajriba ma'lumotlari; ikkinchisi ta'lim muassasalarida maxsus o'qitish jarayonida olgan til haqidagi bilimlari.

Nutqiy tajriba ona tilini amaliy bilish, oilada, ko'cha-ko'yda, jamoat joylarida boshqalardan eshitish orqali maydonga keladi. Imo-ishora, mimika singari paralingvistik vositalar ham nutqiy tajriba asosida o'zlashtiriladi. Nutqiy kompetensiya nutqiy tajriba va til haqidagi bilim munosabati bir butunligi asosida shakllanadi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida bu ikki tomonning o'zaro munosabatini hisobga olishi katta ahamiyatga ega. Nutqiy jarayonda nutq oqimi bilan birgalikda unga qo'shimcha ravishda qo'llaniladigan so'zlovchining yuz, ko'z, lab harakatlari, ovoznining baland-pastligi singari turli xil paralingvistik vosi-talardan foydalanish malaka va ko'nikmasi bolalarda nutqiy muhitni bevosita kuzatish asosida "o'z dasturi bo'yicha" shakllanadi va nutq oqimini to'g'ri ishga sola oladi.

Nutqiy kompetensiya (kommunikativ kompetensiya)-o'quvchining notanish matni ifodali o'qiy olish, o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasi hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya – maktab o'quvchisining lingvistik kompetensiyasi deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining shaxsiy xislatlari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda mahorati anglashiladi. Lingvistik kompetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir. Ona tili va adabiyotni o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv bu o'qituvchi shaxsining yoshlarni til haqidagi bilimlarini oshirish bilan birgalikda, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishdan iboratdir. Shuning uchun ham ona tili va adabiyot o'qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega yoshlarni tarbiyalash bilan cheklanmay, balki bu bilimlarga ega bo'lish bilan birgalikda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalana oladigan, malaka va ko'nikmasi rivojlangan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Demak, ta'limning barcha turlarida, xususan, tilga oid ta'limda kompetensiyaviylikni rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Zamonamizning rivojlanishi, fan-texnika asrining jadal sur'atda takomil-lashishi bilan ijtimoiy-siyosiy hayotda o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofa-siga, bilimlilik salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga jiddiy talablar qo'yil-moqda. Xususan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi davlat

talablarini bilmog'i maqsadimizga muvofiqdir.

- "Davlat tili" haqidagi qonunni bilishi;
- yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining oldingi dastur va DTSdan farqini aniq bilishi;
- ta'limga oid me'yoriy hujjatlardagi yangiliklarni mavzular mazmuniga singdirib o'qitish metodikasini bilishi;
- ona tili va adabiyot fanidan yaratilgan yangi muqobil darsliklarni tahlil qila olishivaular bilan ishlashi;
- ona tili bo'yicha ilmiy-tadqiqot, metodik ishlarni olib boorish talablarini bilishi amaliyotga tadbiiq eta olishi;
- ona tili darslarida til va nutq ko'nikmalarini nazorat qilish, yozma ishlarni o'tkazish, murakkab mavzular bo'yicha testlar tuzish hamda ularni qo'llash metodikasini bilishi;
- ona tili bo'yicha yetuk mutafakkirlarning ma'naviy va ma'rifiy, madaniy meroslarini bilishi va ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- ona tili yo'nalishidagi ilg'or ish tajribalarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- ona tili fanidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashgan ta'lim berish metodikasini bilish;
- ona tili bo'yicha muammolar, yangiliklar, kashfiyotlar, ilmiy izlanishlar, milliy va jahon pedagogikasi taraqqiyotidagi tadqiqotlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- ona tili darslarida foydalanishga mo'ljallangan qomus va o'quv lug'atlarini bilish va amaliy foydalanishga ega bo'lish;
- ona tili va adabiyot fanini o'qitish bo'yicha tajriba almashish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish yo'llarini bilishi va hujjatlarini rasmiylashtirish qoidalari bilan tanish bo'lishi.

Bir so'z bilan aytganda, hozirgi zamon o'qituvchisi dars o'tish jarayonida yuqorida sanab o'tganimiz o'qituvchining zimmasiga qo'yilgan talablarni bilishi kerak. Ilmli insongina har qanday vaziyatdan qulay va oson yechim topib chiqib ketadi. O'qituvchi ana shunday kuchli bilimga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i va intilmog'i kerak. To'g'ri, har qanday shaxs ham bir kun yoki bir muddat davomida dunyo ilmlarini egallay qolmaydi, o'qituvchi ham o'qituvchi bo'lishgacha bo'lgan davrda shu bilan birgalikda, dars o'tish jarayonida, hayotiy tajribalarida o'z bilimini oshirib boradi. Tayanch kompetensiyalarni o'rganishdagi maktablar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar uchun eng ko'p qo'llanadigan kompetensiya turi bu -kommunikativ kompetensiyadir. Bu kompetensiyaning turi biror fan yoki yo'nalishni tanlamaydi u ta'limning barcha sohasida keng qo'llanadigan kompetensiyaning turidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalaridan biri bo'lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhimdir. Ma'lumki, har bir ta'limning eng ta'sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki har bir inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e'tiqod, iymon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televideeniya, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o'rnini e'tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko'ziga qarab turib aytiladigan ma'noli so'zlar va hissiyotning o'rne beqiyosdir. Inson ko'ziga qarab aytilgan ma'lumot va shu ma'lumotga mos yuz harakatlari ya'ni mimikasi, ko'zning boqishi, samimiyat fikrni tushuntira olish va uqtirish uchun yaxshi xizmat qiladi. Bunday muloqot, albatta, samarali bo'ladi. Shu bois o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi va ota-

ona-o'quvchi o'rtasidagi muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog'liqdir. Bola jumllarining mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqot shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ-shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat - nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 muhim tomon-miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D.B. Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari vatarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi.

Kommunikativ kompetensiyada o'quvchining muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish ham o'z o'rniga ega. Umuman maktab o'quvchisining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Ulg'ayayotgan kishining hayotdagi mavqeyini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda, o'z vazifasini anglatishda o'qituvchining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat'iy faoliyati zarur hisoblanadi. Demak, bola kommunikativ kompetensiyani egallashi orqali uning nutqi, muomala-munosabat va bilish darajasi oshib boradi. Maktablarda hech bir fan yo'qki unda nutq vositasidan foydalanilmasa. Xususan, biz o'rganadigan ona tili darslarimizdagi maktab tajribalaridagi kompetensiyalardan foydalanib qay tarzda o'tish jarayonini ko'rib o'tyapmiz. Dars jarayonida azal azaldan nutq vositasidan foydalanib kelingan ammo bu kompetensiya atamasi bilan aytilmagan. Zamonaviy ta'limning izchillik bilan rivojlanish davrida fanga yangi atamalar kirib kelmoqda. Bular zamirida chuqurlashtirilgan maqsad va vazifa qo'yildi. Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiya faqat dars jarayonida o'qituvchining tushuntirish nutqi orqali emas balkim axborot texnologiyalaridan foydalangan holatda darslarni o'tish, medita'limdan foydalanish dars jarayonini qiziqarli va mazmunli o'tishni ta'minlaydi. Ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi kommunikativ kompetensiyali dars o'tishidan oldin uning o'zini kommunikativ malakasi shakllangan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi ta'lim paradigmasiga o'tilishi barobarida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini ta'minlash, ularda muayyan faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish zaruriyati vujudga keldi.

Kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish asosida o'quvchilarda tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari, mazmuni va muayyan printsiplarini ishlab chiqish ehtiyoji kuchaydi. Izlanishlarimiz davomida o'quvchilarda tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda jamiyat va davlat ehtiyojlari o'quv-tarbiya jarayonining vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligi ayon bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli



Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barakamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-sonli Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

6. Vahobov M.M. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida // "Zamonaviy ta'lim" j. – 2016 yil №6.– 3-10-betlar

7. Safarova R.G., Umaraliyeva M. O'qituvchilarning hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalash kompetentsiyalarini rivojlantirish // "Xalq ta'limi" jurnali – Toshkent, 2016 yil №5. - 19-20-betlar.

8. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.

9. Nusratova, H. (2021, October). BOSHLANG'ICH SINFO'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI: 10.53885/edinres.2021.80. 81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasida dotsenti, PhD. In *Научно-практическая конференция* (pp. 51-52).

10. Rustamova, Z. (2022). LINGUISTIC BASIS OF CREATION OF DIALECTAL CORPUS OF UZBEK LANGUAGE. *Science and Innovation*, 1(8), 1255-1258.